

“NAMUNALI XAVFSIZ KO‘CHA” VA “NAMUNALI XAVFSIZ
YO‘LAK”LARNI TASHKIL ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM
LOYIHASINING MAZMUN-MOHİYATI

Ikanov Azamat Agzamovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d.(PhD), k.i.x.,

Alijonov Ibrohimjon Rustamjon o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi
yu.f.b.f.d.(PhD) Jxu@mail.uz; 71-230-45-11(1037)

Anotatsiya: mazkur maqolada Jamoat xavfsizligi universitetida AL-11325078166-son shartnomasiga asosan amalga oshiralayotgan **“Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta‘minotini yaratish”** mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan bo‘lib, maqolada “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil etish tartibini ishlab chiqish zaruriyati asoslantirilgan va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning ijtimoiy zaruriyati va “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom loyihasining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xavfsiz muhit, xavfsiz davlat, kriminogen vaziyat, jinoyatchilik, xavfsiz ko‘cha, xavfsiz yo‘lak.

**СУТЬ ПРОЕКТА ПОЛОЖЕНИЯ О ПОРЯДКЕ СОЗДАНИЯ
«ОБРАЗЦОВЫХ БЕЗОПАСНЫХ УЛИЦ» И «ОБРАЗЦОВЫХ БЕЗОПАСНЫХ
ПОДЪЕЗДОВ»**

Аннотация: данная статья подготовлена в рамках практического исследовательского проекта на тему "Создание программного обеспечения геоинформационной карты города Ташкента для осуществления мониторинга криминогенной ситуации," реализуемого в Университете общественной безопасности на основании договора №AL-11325078166. В статье обоснована необходимость разработки порядка организации "Образцовых безопасных улиц" и "Образцовых безопасных переулков," раскрыта социальная необходимость создания безопасной среды в махаллях и сущность проекта положения о порядке организации "Образцовых безопасных улиц" и "Образцовых безопасных переулков."

Ключевые слова: безопасная среда, безопасное государство, криминогенная ситуация, преступность, безопасная улица, безопасный переулок.

THE ESSENCE OF THE DRAFT REGULATION ON THE PROCEDURE FOR
CREATING “MODEL SAFE STREETS” AND “MODEL SAFE ENTRANCES”

Abstract: *This article was prepared within the framework of an applied research project titled "Creation of software for a geoinformation map of Tashkent city to monitor the criminogenic situation," which is being implemented at the University of Public Security under contract No. AL-11325078166. The article substantiates the necessity of developing procedures for establishing "Exemplary Safe Streets" and "Exemplary Safe Corridors." It also reveals the social importance of creating a safe environment in mahallas and explains the essence of the draft regulation on the procedures for organizing "Exemplary Safe Streets" and "Exemplary Safe Corridors."*

Keywords: *safe environment, safe state, criminogenic situation, crime, safe street, safe corridor.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Buning natijasida O‘zbekistonning xavfsiz davlat sifatidagi reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda, jumladan butunjaxon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSh) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori”[1] bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda 142 ta davlat orasida **17-o‘rinni**, Osiyoda 49 ta davlat orasida **5-o‘rinni**, Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida **1-o‘rinni** egallaganligi fikrimizni yorqin dalili hisoblanadi.

Shu bilan birga mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda jinoyat oqibatlari bilan kurashishni emas, balki jinoyatchilikning asl omillarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish orqali uning barvaqt oldini olishni ustuvor maqsadga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, 2024 yilda **9 456 ta** mahalla hududida **40 251 ta** jinoyat **qayd etilgan** va har 100 ming aholiga **109,4 ta** jinoyat to‘g‘ri kelgan[2].

Mahalla hududida **oldini olish mumkin bo‘lgan** jinoyatlar har 100 ming aholiga **63,8 ta** to‘g‘ri kelib, **23,9 foizi** (5 615 ta) **og‘ir** va **o‘ta og‘ir** toifadagi jinoyatlardir.

Shuningdek, aniqlanadigan jinoyatlar har 100 ming aholiga **45,6 ta** to‘g‘ri kelib, **35,8 foizi** (6 009 ta) **og‘ir** va **o‘ta og‘ir** toifadagi jinoyatlardir.

Jami **9 456 ta** mahallaning **69,4 foizida** (6 562 ta) jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, **30,6 foizida** (2 894 ta) **jinoyat sodir etilmagan** (yashil mahalla).

Amalga oshirilgan tashkiliy-huquqiy choralar natijasida 2024 yilda (39 675ta) oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 2023 yilga nisbatan (45 571ta) 5 896 taga yoki **13 foizga** kamaytirishga erishilgan bo‘lsa-da, umumiy ko‘rsatkich yuqoriligicha qolayotganligi, shuningdek qotillik jinoyatining **4 foizga**, oilaviy zo‘ravonlik jinoyatining **33 foizga** va transport vositalarini olib qochish jinoyatining **10 foizga** oshganligi mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy ishlarni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Aynan shuning uchun ham, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini alohida yondoshuvlar asosida ilmiy tadqiq qilish, jinoyat oqibatlari bilan kurashishni emas, balki jinoyatlarning asl omillarini aniqlash va o‘z vaqtida barataraf etish orqali uning barvaqt oldini olish ustuvor vazifaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori[3] ham aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan.

Qarorning 8-bandida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari har oyda hududiy «yo‘l xaritalari»da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har bir tuman (shahar)ning to‘rtta sektorida kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda kamida ikkitadan «namunali xavfsiz ko‘cha» va beshtadan «namunali xavfsiz yo‘lak» tashkil etish choralari ko‘rish vazifasi belgilangan[4]. Biroq hozirda qonunchilikda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” tamoyillari belgilanmaganligi sababli, mazkur vazifani olishga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur dolzarb vazifani amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazining ilmiy xodimlari tomonidan “Respublika mahallalarida “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”i loyihasi ishlab chiqildi.

Nizom loyihasi, 7-bob, 25 ta band va ilova (Respublika mahallalarida tashkil etilgan “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” ni baholash mezonlari)dan iborat.

Nizomning 1-bobi (Umumiy qoidalar)da Nizom respublika mahallalarida “**namunali xavfsiz ko‘cha**” va “**namunali xavfsiz yo‘lak**”larni tashkil etish tartibini belgilashi bayon etilgan, shuningdek quyidagi tushunchalarga huquqiy ta‘rif berilgan:

xavfsiz ko‘cha – shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari xavf-xatar, tahdid va tajovuzlardan himoyalangan va mazkur nizom talablariga javob beradigan eng kichik hududiy birlik;

xavfsiz yo‘lak – insonlarning xavfsiz harakatlanishi ta‘minlangan, xavfsizlik talablariga javob beradigan ko‘chaning ajralmas qismi;

jamoat joyi – insonlarning keng foydalanishi uchun ochiq bo‘lgan, ko‘pchilikning erkin (to‘siqlarsiz) harakatlanishi, dam olishi, yig‘ilishi, ijtimoiy faolligini amalga oshirishi va maishiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lgan joy.

Atrof-muhitni loyihalashtirish orqali jinoyatlarni oldini olish – tashkiliy, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar yordamida xavfsiz muhitni yaratish orqali

jamoat xavfsizligiga tahdidlar minimallashtiriladi hamda jinoyatlar sodir etilishi uchun “noqulay” sharoit yaratiladi.

Ushbu Nizom barcha davlat organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Respublika mahallalarida tashkil etilgan **“namunali xavfsiz ko‘cha”** va **“namunali xavfsiz yo‘lak”**lar baholash mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Nizomning 2-bobi (**“Namunali xavfsiz ko‘cha”** va **“namunali xavfsiz yo‘lak”**larni tashkil etishning maqsadi va asosiy vazifalari)da Respublika mahallalarida tashkil etilgan **“namunali xavfsiz ko‘cha”** va **“namunali xavfsiz yo‘lak”**lar tashkil etishning maqsadi etib quyidagilar belgilangan:

mahallalar, jamoat joylari (shu jumladan, aholi gavjum bo‘ladigan joylar), ko‘chalar, yo‘laklarda xavfsiz muhitni yaratish;

fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda xoriy tajribani keng joriy qilish;

mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish orqali mamlakatimizning **“xavfsiz davlat”** imidjini yanada mustahkamlash, investitsiyaviy va turistik jozibadorligini oshirishdan iborat.

Respublika mahallalarida tashkil etilgan **“namunali xavfsiz ko‘cha”** va **“namunali xavfsiz yo‘lak”**lar tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

barcha mahallalarning kirish/chiqish joylariga yuzni tanib oluvchi (Face ID) kameralarini o‘rnatish va ularni IIBlarga integratsiya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo‘riqlov qamrovini oshirish;

jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqori bo‘lgan xilvat (ovloq) joylarni texnik tartibga solish;

hududlarni tungi vaqtlarda yoritilishi, kuzatuv kameralari bilan nazoratga olinishi, ko‘p qavatli uylar kirish eshigiga domofonlar o‘rnatilishini ta‘minlash;

jinoyat sodir etilgan yoki sodir etilishi yuqori bo‘lgan jamoat joylarida tashvish tugmalarini o‘rnatish;

atrof-muhitni loyihalashtirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan shart-sharoit va omillarni inobatga olish.

Bunda, jinoyatchilikni oldini olishda qurilishning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish: aholi zichligi, hududdagi qurilishlar shakllari, jamoat joylarida aholining ko‘p to‘planishi, jamoat transportining qulayligi, ko‘chalarning yoritilishi inobatga olinadi;

turar joy majmualari qurilishiga mutanosib ravishda ijtimoiy obektlar (bog‘cha, maktab, poliklinika, avtoturargoh va boshqa) barpo etilishini ta‘minlash;

yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, yo‘l belgilari va harakatni tartibga soluvchi boshqa texnik vositalar bilan ta‘minlash, piyodalar va velosiped yo‘laklarini tashkil etish;

jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga nisbatan aholining ogohligini oshirish va befarqligini kamaytirish;

aholining bandligini ta'minlash va ijtimoiy muammolarini hal qilish;

maxsus toifadagi shaxslar bilan tizimli ishlashni yo'lga qo'yish;

kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarni minimallashtirish va boshqalar.

Loyihaning 3-bobi (Namunali xavfsiz ko'cha" va "namunali xavfsiz yo'lak"larga qo'yiladigan talablar)da Respublika mahallalarida tashkil etilgan **“namunali xavfsiz ko'cha”** va **“xavfsiz yo'lak”**larga quyidagi talablar qo'yilgan:

a) infratuzilma:

tungi vaqtda ko'chaning aholi istiqomat qiladigan va harakatlanadigan qismi to'liq yoritilishi;

transport vositalar va piyodalar harakatlanadigan yo'llar (yo'laklar) texnik talablarga javob berishi, yo'l belgilari o'rnatilishi;

jamoat transporti bekatlarining aholi yashash xonadoni yaqinida joylashishi, yoritilishi va kuzatuv kameralari bilan ta'minlanishi;

transport vositalari uchun maxsus jihozlangan va texnik talablarga javob beradigan avtoturargohlarning mavjudligi;

xiyobonlar, bolalar maydonchalari, aholi ko'p to'planadigan joylar, piyodalar yo'laklarining xavfsizlik talabiga javob berishi;

yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun sport maydonchalari, trenajyor zallar va sport to'garaklarining mavjudligi;

ijtimoiy obektlarning aholi ehtiyojlariga mutanosibli;

ko'chalarda noqonuniy (yoyma) savdo rastalari faoliyati cheklanganligi;

qarovsiz yerto'la, chordoq va chiqindixonalar mavjud emasligi;

aholi punktlarida texnogen xavfli obektlarning mavjud emasligi.

b) texnik choralar:

jinoiyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylar to'liq kuzatuv kameralari bilan qamrab olinishi va tashvish tugmalarining o'rnatilishi;

xonadonlar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, ko'ngilochar maskanlar, kafe, restoran va barlarning qo'riqlovga olinishi;

videokuzatuv kameralarining profilaktika inspektori xizmat xonasiga integratsiya qilinganligi;

xo'jalik yurituvchi subektlar o'z hududlariga kuzatuv kameralari va yoritish chiroqlarini o'rnatganliklari;

barcha mahallalarning kirish-chiqish joylariga yuzni tanib oluvchi Face ID kameralari o'rnatilganligi va IIBlarga integratsiya qilinganligi;

ko'p qavatli uylarning kirish eshiklariga domofonlarning o'rnatilganligi;

do'konlar, xonadonlar, ko'p qavatli uylar va boshqa ijtimoiy obektlarga "hudud kamera nazoratida" kabi stikerlarning o'rnatilganligi.

v) kuch-vositalar:

viloyat va shahar markazlaridagi jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan va aholi ko‘p to‘planadigan joylarda patrullik yo‘nalishining mavjudligi;

profilaktika inspektori lavozimi butlanganligi;

kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda tajribali profilaktika inspektori bilan jamlanganligi;

voqea va hodisalarga tezkor javob berish tizimi imkoniyatining cheklanmaganligi;

hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni oldini olishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

aholi punktlarida qarovsiz, daydi itlarga o‘z vaqtida chora ko‘rilishi.

g) iqtisodiy-ijtimoiy choralar:

aholining bandligini ta‘minlanishi;

ijtimoiy profilaktika obektlarining muammolari hal qilinishi;

maxsus toifadagi shaxslar bilan tizimli ishlashni yo‘lga qo‘yilganligi;

lo‘li millatiga mansub shaxslarning ijtimoiylashuvi ta‘minlanishi.

Nizomning 4-bobida “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil etish tartibi belgilangan, jumladan, 8-bandida mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”lar tashkil qilish qilish bo‘yicha aniq vazifalar har chorakda ishlab chiqiladigan mahalla, tuman va viloyat darajasidagi (*keyingi o‘rinlarda–hududiy yo‘l xaritalari*) yo‘l xaritalariga kiritiladi, ularning aniq ijrochilari, moliyaviy manbalari va muddatlari belgilanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Nizomga ko‘ra:

mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”lar tashkil qilish qilish uchun viloyat va tuman (shahar) hokimlariga byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘laridan, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lardan maqsadli va manzilli foydalanishga, mahalla raislariga mahallaning soliq yig‘imlaridan tushgan mablag‘laridan foydalanishga ruxstat beriladi;

hududlarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilishga mahalla raisi, tuman (shahar) va viloyat hokimlari shaxsan javob beradilar;

hududlarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilishni rejalashtirishda dastlab kriminogen vaziyati og‘ir, “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar e‘tiborga olinadi;

“namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilishda homiylik (hayriya) ko‘rsatgan yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy hokimliklar vakolatida rag‘batlantirish choralari ko‘riladi.

Nizomning 5-bobida “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”lar baholash metodikasi bayon etilgan, unga ko‘ra:

“Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni baholashda ilovada keltirilgan mezonlar bo‘yicha har bir indikatorga aniq ballar beriladi va ularning natijasi umumlashtiriladi;

har bir mezon bo‘yicha alohida baholanadi:

har bir band bo'yicha (*infratuzilma, texnik choralar, kuch-vositalar, ijtimoiy-iqtisodiy choralar*) berilgan indikatorlarga ballar belgilanadi. Har bir indikatoridagi ballar jamlanadi.

Masalan:

a) Infratuzilma:

Yoritilish darajasi – 5 ball

Transport va piyodalar yo'llari – 5 ball

Jamoat transporti bekatlari – 4 ball

Avtoturargohlar – 3 ball

Piyodalar yo'laklari va jamoat obektlari – 4 ball

Noqonuniy savdo – 5 ball

Texnogen xavfli obektlar – 5 ball

Infratuzilma bo'yicha umumiy ball: $5+5+4+3+4+5+5=31$

b) Texnik choralar:

Kuzatuv kameralari – 5 ball

Qo'riqlovga olingan obektlar – 4 ball

Domofonlar – 3 ball

Hududning kamera nazorati – 5 ball

Texnik choralar bo'yicha umumiy ball: $5+4+3+5=17$

v) Kuch-vositalar:

Patrullik yo'nalishi – 5 ball

Profilaktika inspektori – 4 ball

Tezkor javob berish tizimi – 5 ball

Uchuvchisiz uchish apparatlari – 3 ball

Qarovsiz itlar – 4 ball

Kuch-vositalar bo'yicha umumiy ball: $5+4+5+3+4=21$

g) Iqtisodiy-ijtimoiy choralar:

Aholining bandligi – 5 ball

Ijtimoiy profilaktika – 4 ball

Maxsus toifadagi shaxslar bilan ishlash – 5 ball

Lo'li millatiga mansub shaxslar – 5 ball

Iqtisodiy-ijtimoiy choralar bo'yicha umumiy ball: $5+4+5+5=19$

Har bir sektorning umumiy balini topish quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

Umumiy ball = $\sum(\text{Indikatorlarning umumiy balli})$

Umumiy baholash natijasiga ko'ra, shu ko'cha hududining xavfsizlik darajasi **89%dan** yuqori baholansa **xavfsiz** deb hisoblanishi mumkin.

Xavfsizlik darajasini aniqlash:

90-100 ball – yuqori darajada.

70-89 ball – o'rta darajada.

50-69 ball – qoniqarli darajada.

50 balldan kam – qoniqarsiz darajada.

Nizomning 6-bobiga asosan mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”lar tashkil qilish holatini o‘rganish va baholash maqsadida viloyat, tuman (shahar) prokuraturalari huzurida monitoring guruhi tuziladi.

Monitoring guruhi tarkibi Prokuratura, Ichki ishlar, Milliy gvardiya, Mahallalar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa manfaatdor organlari malakali xodimlari orasidan shakllantiriladi.

Monitoring guruhi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tashkil etilgan “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larning mazkur Nizom talablariga muvofiqligini baholash;

“namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larga o‘rnatilgan texnik vositalarning sozligi, yaroqliligini o‘rganish;

“namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni belgilangan mezonlarga muvofiqligi bo‘yicha xulosa berish;

“namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”lar bo‘yicha ma‘lumotlarni umumlashtirish va Bosh prokuratura huzurida tashkil etilgan Respublika idoralararo ishchi guruhi shtabiga taqdim qilish.

Monitoring guruhi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida mahallaga borgan holda tashkil etilgan “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” o‘rganiladi. O‘rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi va bartaraf etish uchun vaqt beriladi.

“Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilinganligi bo‘yicha qasddan yolg‘on (noto‘g‘ri) ma‘lumot berish, monitoring guruhi chalg‘itishga urinish holati bo‘yicha hududiy prokuraturaga xulosa kiritiladi va qonuniy chora ko‘rilishi ta‘minlanadi.

Nizom loyihasining 7-bobi (Yakunlovchi qoidalar)ga ko‘ra:

mahalladagi ko‘chalarning 50 foizidan ortig‘ida “namunali xavfsiz ko‘cha”larni tashkil qilgan mahalla yettiligi a‘zolari, tuman (shahar)larda 50 foizdan ortiq ko‘chalarni “namunali xavfsiz ko‘cha”ga aylantirgan tuman (shahar) hokimi, prokurori va ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i mahalliy byudjet hisobidan qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirib boriladi, shuningdek davlat mukofotiga tavsiya etiladi;

mahallarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilishda sustkashlikka yo‘l qo‘ygan mansabor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rib boriladi.

Nizomning ilovasida beliglangan Respublika mahallalarida tashkil etilgan “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” ni baholash mezonlariga ko‘ra “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi.

I. Infratuzilma (maksimal 35 ball):

1. Yoritilish darajasi:

100% yoritilgan ko‘cha qismi – yuqori (5 ball).

75-99% yoritilgan – o‘rta (3 ball).

50% va undan kam yoritilgan – past (1 ball).

2. Transport va piyodalar yo‘llari:

Texnik talablarga javob beradigan yo‘laklar – yuqori (5 ball).

Qisman talabga javob beradigan yo‘laklar – o‘rta (3 ball).

Talablarga javob bermaydigan yo‘laklar – past (1 ball).

3. Jamoat transporti bekatlari:

Aholi yashash joyi yaqinida joylashgan va yoritilgan – yuqori (5 ball).

Aholi yashash joyiga o‘rtacha masofada joylashgan va yoritilgan – o‘rta (3 ball).

Aholi yashash joyiga uzoq masofada joylashgan yoritilmagan bekatlar – past (1 ball).

4. Avtoturargohlar:

Mavjud va talabga javob beradigan avtoturargohlar – yuqori (5 ball).

Mavjud, lekin talabga javob bermaydigan avtoturargohlar – o‘rta (3 ball).

Mavjud emas – past (1 ball).

5. Piyodalar yo‘laklari va jamoat obektlari:

Xavfsiz va talablarga javob beradigan yo‘laklar – yuqori (5 ball).

Qisman talabga javob beradigan xavfsizlik yo‘laklari – o‘rta (3 ball).

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan yo‘laklar – past (1 ball).

6. Noqonuniy savdo:

Yo‘nalishda noqonuniy savdo mavjud emas – yuqori (5 ball).

Qisman noqonuniy savdo rastalari mavjud – o‘rta (3 ball).

Noqonuniy savdo faoliyati juda ko‘p – past (1 ball).

7. Texnogen xavfli obektlar:

Hududda texnogen xavfli obektlar yo‘q – yuqori (5 ball).

Hududda ba’zi texnogen xavfli obektlar mavjud – o‘rta (3 ball).

Texnogen xavfli obektlar mavjud – past (1 ball).

II. Texnik choralar (20 ball):

1. Kuzatuv kameralari:

Barcha jinoyat ehtimoli yuqori joylar kuzatuv kameralari bilan to‘liq qamrab olingan – yuqori (5 ball).

Qisman kuzatuv kameralari bilan qamrab olingan – o‘rta (3 ball).

Kuzatuv kameralari yo‘q – past (1 ball).

2. Qo‘riqlovga olingan obektlar:

Barcha obektlar qo‘riqlanadi – yuqori (5 ball).

Chastichniy qo‘riqlash – o‘rta (3 ball).

Qo‘riqlash yo‘q – past (1 ball).

3. Domofonlar o‘rnatilganligi:

Barcha ko‘p qavatli uylarga domofonlar o‘rnatilgan – yuqori (5 ball).

O‘ttiz foizida mavjud – o‘rta (3 ball).

Yo‘q – past (1 ball).

4. Hududning kamera nazorati:

Hudud kamera nazoratida ko‘p qavatli uylar, do‘konlar va ijtimoiy obektlar mavjud – yuqori (5 ball).

Qisman kamera nazorati – o‘rta (3 ball).

Hudud kamera nazoratida emas – past (1 ball).

III. Kuch-vositalar (25 ball):

1. Patrullik yo‘nalishi:

Hududda patrullik yo‘nalishi to‘liq mavjud – yuqori (5 ball).

Qisman patrullik yo‘nalishlari mavjud – o‘rta (3 ball).

Patrullik yo‘nalishi yo‘q – past (1 ball).

2. Profilaktika inspektori:

Profilaktika inspektori lavozimi butlangan – yuqori (5 ball).

Profilaktika inspektori lavozim 50 foizga butlangan – o‘rta (3 ball).

Profilaktika inspektori mavjud emas – past (1 ball).

3. Tezkor javob berish tizimi:

Tizim cheklanmagan va tezkor javob berish imkoniyati mavjud – yuqori (5 ball).

Tizim cheklangan, ammo mavjud – o‘rta (3 ball).

Tizim mavjud emas – past (1 ball).

4. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda uchuvchisiz uchish apparatlari:

Uchuvchisiz uchish apparatlari foydalaniladi – yuqori (5 ball).

Uchuvchisiz uchish apparatlari cheklangan – o‘rta (3 ball).

Uchuvchisiz uchish apparatlari yo‘q – past (1 ball).

5. Qarovsiz itlar:

Qarovsiz itlarga o‘z vaqtida chora ko‘rilgan – yuqori (5 ball).

Qarovsiz itlarga cheklangan choralar ko‘rilgan – o‘rta (3 ball).

Qarovsiz itlarga chora ko‘rilmaydi – past (1 ball).

IV) Iqtisodiy-ijtimoiy choralar (20 ball):

1. Aholining bandligi:

Aholi bandligi yuqori darajada ta‘minlangan – yuqori (5 ball).

Aholi bandligi 85 %dan yuqori – o‘rta (3 ball).

Aholi bandligi 85%dan past – past (1 ball).

2. Ijtimoiy profilaktika:

Ijtimoiy profilaktika xulosalari to‘liq ijro qilingan – yuqori (5 ball).

Ijtimoiy profilaktika xulosalari 85%ga ijro qilingan – o‘rta (3 ball).

Xulosalar ijro qilinmagan – past (1 ball).

3. Maxsus toifadagi shaxslar bilan ishlash:

Maxsus toifadagi shaxslar bilan tizimli ishlash amalga oshirilgan – yuqori (5 ball).

Qisman ishlash – o‘rta (3 ball).

Ishlash mavjud emas – past (1 ball).

4. Lo‘li millatiga mansub shaxslar:

Lo‘li millatiga mansub shaxslar to‘liq ijtimoiylashgan – yuqori (5 ball).

Ijtimoiylashuv dasturi ishlab chiqilgan – o‘rta (3 ball).

Ijtimoiylashuv dasturi mavjud emas – past (1 ball).

Fikrimizcha, Respublika mahallalarida “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning qabul qilinishi mahallalarda xavfsiz mahitni yaratishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Chunonchi, jinoyatchilik insonlarning farovon turmush tarzi va osoyishta xayot kechirishiga tahdid soladigan salbiy hodisa sifatida barcha davrlarda aktual ahamiyatga ega bo‘lib, uning oldini olish hamda unga qarshi kurashish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblangan. Hozirgi davrda nafaqat O‘zbekistondan, balki rivojlangan davlatlarda ham jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish jamiyat xavfsizligi va davlat imidjiga ta’sir ko‘rsatuvchi strategik ahamiyatga ega vazifa bo‘lib qolmoqda.

Chunki, mamlakatimizda xavfsiz muhitning yaratilishi nafaqat fuqarolarimizning farovon turmush tarzining mustahkamlanishi, balki O‘zbekistonning xavfsiz davlat sifatidagi imidjining mustahkamlanishi barobarida xorijiy investitsiyalar va sayyoxlarning oqimi oshishi orqali iqtisodiy rivojlanishga ulkan xissa qo‘shadi. Zero xavfsizlik-iqtisodiyot va ijtimoiy xayot bir-biriga chambarcha bog‘liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Order%20>;
2. “Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari” (xdfu) (2024-yil bo‘yicha): Axborot-tahliliy xujjat. – T.:O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 122 b.;
3. <https://www.lex.uz/docs/7330260>;
4. <https://www.lex.uz/docs/7330260>;